



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	



FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI

Zaripov Xusan Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Soliq va soliqqa tortish kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0009-0007-7370-6249

E-mail: xb_zaripov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda solig'ining mohiyati, uning hisob-kitobi va amaldagi soliq siyosatidagi muammolar atroflicha tahlil qilingan. Buxgalteriya va soliq foydasi o'rtasidagi tafovutlarning yuzaga kelish sabablari, xarajatlarning soliq hisobida tan olinishi bo'yicha cheklovlar, amortizatsiya me'yorlari nomutanosibligi, zararlarni keyingi yillarga ko'chirish tartibidagi cheklovlar amaliy misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, 2025-yil uchun o'rta tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'langan soliqlar va o'tkazilgan soliq auditlari natijalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida foyda solig'i ma'murchiligini soddalashtirish, zamonaviylashtirish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, soliq bazasi, soliq ma'murchiligi, amortizatsiya, xarajatlarning tan olinishi, soliq audit, soliq siyosati, tadbirkorlik, soliq yuklamasi, bozor iqtisodiyoti.

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the essence of corporate income tax in a market economy, its calculation procedures, and existing challenges within the current tax policy. The study examines the causes of discrepancies between accounting profit and taxable profit, limitations on the deductibility of expenses, inconsistencies in depreciation norms, and restrictions on carrying forward losses, supported by practical examples. Statistical data on taxes paid and tax audit results of medium-sized enterprises for 2025 are also analyzed. Based on the findings, recommendations for simplifying, modernizing, and digitalizing corporate income tax administration are proposed.

Key words: corporate income tax, tax base, tax administration, depreciation, expense recognition, tax audit, tax policy, entrepreneurship, tax burden, market economy.

Аннотация. В статье всесторонне проанализированы сущность налога на прибыль в условиях рыночной экономики, порядок его расчёта и проблемы, существующие в действующей налоговой политике. На практических примерах раскрыты причины возникновения расхождений между бухгалтерской и налоговой прибылью, ограничения по признанию расходов в налоговом учёте, несоответствие норм амортизации, а также ограничения при переносе убытков на последующие годы. Кроме того, на основе статистических данных исследованы объёмы уплаченных налогов и результаты налоговых аудитов субъектов среднего бизнеса за 2025 год. В результате исследования разработаны предложения по упрощению, модернизации и цифровизации администрирования налога на прибыль.

Ключевые слова: налог на прибыль, налоговая база, налоговое администрирование, амортизация, признание расходов, налоговый аудит, налоговая политика, предпринимательство, налоговая нагрузка, рыночная экономика.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy siyosatining asosiy elementlaridan biri soliq tizimidir. Soliq tushumlarining muhim qismi korxonalar foydasiga solinadigan foyda solig'i orqali shakllanadi. Mazkur soliq turi iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini ta'minlash, davlat byudjetini to'ldirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tartibga solishda asosiy vosita hisoblanadi. Biroq foyda solig'ining hisob-kitobi, uni undirish mexanizmi va soliq solish bazasini aniqlash tartibi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab bo'lgani sababli ko'plab muammolarni yuzaga keltiradi.

Foyda solig'i milliy byudjet–soliq tizimida alohida o'rin tutadi. Shu bois uni undirish mexanizmining samaradorligi davlatning iqtisodiy faollikka fiskal ta'sir ko'rsatish choralarining natijadorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Bir tomondan, foyda solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarning umumiy tuzilmasidagi eng muhim elementlardan biri bo'lib, foydani soliqqa tortish bilan bog'liq soliq qonunchiligidagi har qanday o'zgarish xo'jalik



yurituvchi subyekt faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan foyda solig'ining rag'batlantiruvchi salohiyati yuqori bo'lib, ko'plab iqtisodchilar uning tartibga soluvchi funksiyasini faollashtirish yaqin yillarda iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.

Foyda solig'ining asosiy muammosi soliq solinadigan baza, ya'ni korxonaning moliyaviy natijasiga bog'liq bo'lishidir. Buxgalteriya foydasi bilan soliq hisobi uchun tuzatilgan foyda o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu farqlarni vujudga keltiruvchi omillar quyidagilardir:

- amortizatsiya me'yorlarining farqlanishi;
- daromadlarni tan olish vaqtlaridagi tafovutlar;
- ayrim xarajatlarning soliq hisobida tan olinmasligi yoki cheklanishi;
- aktivlar qiymatini qayta baholashdagi farqlar.

Natijada korxona ikki xil foyda ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkin: biri – buxgalteriya hisobi uchun, ikkinchisi – soliq hisobi uchun. Bu esa soliq hisobining murakkabligini oshiradi.

MAVZUGA OID ADBIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda foydani soliqqa tortish bo'yicha bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy fikr va qarashlar bildirilgan.

Dhammika Dharmapala "Asosiy bazaning yo'qolishi va foyda ko'chirilishi: soddalashtirilgan tushuncha modeli" mavzusidagi maqolasida korporativ soliqqa tortish tizimlari qarz bo'yicha foiz to'lovlarini chegirishga ruxsat berishi, ushbu prinsip esa MNClar (ko'p millatli korporatsiyalar)ning mahalliy filiallari tomonidan amalga oshiriladigan foiz to'lovlarini manba mamlakatlari qanday soliq bilan tartibga solishiga ham tatbiq etilishini ta'kidlaydi [1].

Iqtisodchilardan Alessandro Ferrari, Sébastien Laffitte, Mathieu Parenti hamda Farid Toubal "Foyda ko'chirilishi va xalqaro soliq islohotlari" nomli maqolalarida foyda solig'i bo'yicha model ishlab chiqqan bo'lib, ushbu modelga manzilga asoslangan soliqqa tortishni qo'shish orqali uni kengaytiradilar. Bu esa soliqqa tortish huquqlarini an'anaviy tarzda rezident mamlakat, manba mamlakati va foyda joylashgan mamlakatlarga taqsimlash doirasidan chiqadi. Tadqiqotchilar yondashuvi foyda ko'chirilishini kamaytirish va soliq raqobatini pasaytirishga qaratilgan bir qator muhim islohot takliflariga mos keladi [2].

Alex A.T. Rathke "Arm's length prinsipi doirasida foydani ko'chirish" nomli maqolasida kompaniyalar tomonidan soliq sababli yuzaga keladigan foyda ko'chirish xatti-harakatlari va hukumatlarning anti-ko'chirish qoidalarining ta'sirini tahlil qiladi. Muallif ichki savdo va ichki qarzlarni to'liq foyda ko'chirish strategiyasida birlashtirgan firma modelini ishlab chiqadi va bu model arm's length prinsipi hamda umumiy thin capitalisation qoidasini qo'llashni talab etishini ta'kidlaydi. Natijalar bir nechta holatlarda firma barcha mamlakatlarda arm's length shartlariga rioya qilgan holda ham foydani past soliqli mamlakatlarga ko'chirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ichki savdo va ichki qarzlarni ko'chirishning komplementar yoki muqobil (substitut) kanallari sifatida qaralishi mumkin bo'lib, bu barcha transaksiyalar o'zgarishidan keyin yashirin xarajatlar qanday o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatadi [3].

Tadqiqotchi Yusupov X. o'zining "O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda soliqlari ma'murchiligi" nomli maqolasida foyda solig'i to'lovchilarining ma'muriyati, hisobot berish tartibi, soliq stavkalari, raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro tajribaga moslashtirish masalalarini tahlil qiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda solig'i iqtisodiy siklga juda kuchli bog'liq. Iqtisodiy pasayish davrida korxonalar foydasi kamayadi va soliq tushumlari ham qisqaradi. Bu esa davlat byudjetida barqaror daromad shakllantirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli foyda solig'i yuqori darajada o'zgaruvchan bo'ladi.

Soliq kodeksida xarajatlarning tan olinishi bo'yicha bir qator cheklovlar mavjud:

- reklama va marketing xarajatlari limitlangan;
- xizmat safarlari hujjatlar bilan to'liq asoslanishi shart;
- vakillik xarajatlari me'yorlanadi;
- konsalting xizmatlari bo'yicha isbot talablarining kuchli bo'lishi.

Ushbu cheklovlar korxonalar bilan soliq organlari o'rtasida ko'plab tortishuvlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Muammo shundaki, "asoslantirilgan xarajat" tushunchasi ko'plab holatlarda subyektiv talqin qilinadi.




Amalda korxonalar ayrim mayda xarajatlarni hujjatlashtirishda qiyinchilikka duch keladi. Hujjatsiz xarajatlar soliq hisobi tomonidan tan olinmaydi, bu esa:

- soliq solinadigan foydaning sun'iy ravishda oshishiga;
- korxonaning real moliyaviy natijalari buzilishiga;
- qo'shimcha soliq yukining vujudga kelishiga olib keladi.

Soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya me'yorlari qat'iy belgilangan bo'lib, ko'pincha asosiy vositalarning haqiqiy eskirish darajasiga mos kelmaydi. Natijada quyidagi muammolar yuzaga keladi:

- aktivlar tez eskiradi, biroq soliq amortizatsiyasi past bo'ladi;
- investitsiya loyihalarining qaytarilish muddati uzayadi;
- soliq tortish maqsadida foyda solig'i bazasi sun'iy oshadi.

Zararlarni kelgusi yillarga ko'chirish mexanizmining cheklanganligi innovatsion va kapital talab qiluvchi korxonalar uchun jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Zararlarni to'liq yoki uzoq muddatga ko'chirish imkoniyati bo'lmaganda, yangi korxonalar soliq yukining keskin oshishi bilan duch keladi.



1-rasm. O'rta tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'langan soliqlar

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 15 502 ta o'rta tadbirkorlik subyekti tomonidan 20,1 trln so'mdan ortiq soliq to'langan. Shundan 956,1 mlrd so'mi atigi 20 ta korxona hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu korxonalarning jami tovar aylanmasi 3,7 trln so'mdan ziyod, ular tomonidan qo'llangan soliq imtiyozlari esa 187,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

TOP-20 o'rta tadbirkorlik subyektlari infografikada keltirilgan. Ular tomonidan ta'minlangan soliq tushumlari soliq turlari kesimida quyidagicha taqsimlangan:


- QQS – 263,1 mlrd so'm
- Foyda solig'i – 228,8 mlrd so'm
- Aksiz solig'i – 200,3 mlrd so'm



- JShODS – 66,7 mlrd so'm
- Ijtimoiy soliq – 49,5 mlrd so'm
- Boshqa soliqlar – 147,7 mlrd so'm



2025-YIL YANVAR-OKTABR OYLARIDA O'TKAZILGAN SOLIQ AUDITLARI NATIJALARI (MLRD SO'MDA)



2-rasm. O'tkazilgan soliq auditi natijalari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqlarni to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan 3 139 ta tadbirkorlik subyektida soliq auditi o'tkazildi. Bu ko'rsatkich ushbu davrda faoliyat yuritgan jami 558,9 ming soliq to'lovchining 0,6 foizini tashkil etadi.

Aniqlangan soliq xavfi summasi 9,5 trln so'mni, soliq auditlarida aniqlangan real summa esa 10,3 trln so'mni tashkil qilgan.

Soliq auditida aniqlangan summa sohalar kesimida quyidagicha taqsimlangan:

- savdo va umumiy ovqatlanish sohasida – 15 trln so'm (66,3%);
- ishlab chiqarish sohasida – 2,2 trln so'm (9,9%);
- qurilish sohasida – 1,9 trln so'm (8,5%);
- xizmat ko'rsatish sohasida – 1,4 trln so'm (6,4%);
- qishloq xo'jaligi sohasida – 717 mlrd so'm (3,2%);
- transport sohasida – 450,8 mlrd so'm (2%);
- boshqa sohalarida – 850,7 mlrd so'm (3,8%).

O'tkazilgan soliq auditlari davomida 1 526 ta soliq to'lovchida 16,5 trln so'mdan ortiq soliq bazasi yashirilgani aniqlangan:

- 553 ta subyektida 5,2 trln so'mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasi ko'rsatilmagan;
- 483 ta subyektida 5,7 trln so'mlik tovarlar inventarizatsiya vaqtida ombor yoki realizatsiya joyida mavjud bo'lmagan;
- 490 ta subyektida 5,5 trln so'mlik kirim qilinmagan tovarlar saqlangan va/yoki realizatsiya qilingan.

Bugungi kunda aniqlangan soliq summalaridan to'lov muddati kelgan 6,7 trln so'mning 3,3 trln so'mi (49,6%) to'lab berilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Foyda solig'i davlat byudjeti daromadlarining muhim manbai bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda uning qo'llanilishida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, soliq bazasini aniqlash murakkabligi, xarajatlarning tan olinmasligi, yuqori soliq yukining investitsiyaga salbiy ta'siri, global soliq raqobati hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, foyda solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surdik:

- Soliq kodeksini yanada soddalashtirish;
- amortizatsiya me'yorlarini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish;
- transfer narxlari nazoratini kuchaytirish;
- elektron soliq auditini kengaytirish;
- soliq imtiyozlarini optimallashtirish;
- zararlarni ko'chirish muddatini kengaytirish;
- raqamli iqtisodiyot uchun alohida soliq mexanizmlarini yaratish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish soliq tizimini soddalashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizga hozir tushum oshishi asosiysi emas. Birinchi navbatda, tizimni to'g'ri qilib, bilmaganlarga o'rgatib, soliq yukini kamaytirib, tadbirkorlarning emin-erkin, halol ishlashini yo'lga qo'yishimiz kerak. Soliqchilar jazolovchi emas, ko'makchi bo'lishi kerak."

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini amalga oshirishi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun daromadning chegarasini 10 mlrd so'mdan 20 mlrd so'mgacha oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foyda solig'i bo'yicha har oylik bo'nak to'lovlar majburiyati yuklanadigan daromad chegarasining 10 mlrd so'mdan 20 mlrd so'mga oshirilishi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukini sezilarli darajada yengillashtiradi. Bu orqali, ayniqsa, o'rta biznes korxonalarining pul oqimi barqarorligi yaxshilanadi, hisob-kitob va nazorat yuklamalari kamayadi. Eng muhimi, korxonalarda aylanma mablag'lar saqlanib qoladi, investitsiya va rivojlanishga yo'naltiriladigan resurslar ko'payadi. Umuman olganda, ushbu o'zgarish biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soliq ma'murchiligini yengillashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Chegaraning 10 mlrd so'mdan 20 mlrd so'mga oshirilishi ko'plab korxonalarni har oylik bo'nak to'lovlardan ozod qiladi. Bu esa aylanma mablag'larni saqlab qolish, soliqqa tortishda ma'muriy yukni kamaytirish va soliqni haqiqiy foyda asosida to'lash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu taklif tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukini yumshatib, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada esa biznesning rivojlanishi, investitsiya faolligi va iqtisodiy o'sishga qo'shimcha turtki berilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dharmapala, D. Base Erosion and Profit Shifting: A Simple Conceptual Framework. https://chicagounbound.uchicago.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2377&context=law_and_economics
2. Ferrari, A., Laffitte, S., Parenti, M., & Toubal, F. Profit Shifting and International Tax Reforms. <https://arxiv.org/pdf/2211.04388>
3. Rathke, A. A. T. Profit Shifting under the Arm's Length Principle. (2023-yil, 26-sentabr). <https://arxiv.org/pdf/2309.13449>
4. Yusupov, X. A. O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda soliqlari ma'murchiligi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 16-martda Davlat soliq qo'mitasida sohani takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishi. <https://president.uz/oz/lists/view/5060>
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti. <https://gov.uz/oz/soliq>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
